

# MUSIQA TA'LIMI METODIKASI FANIDA PEDAGOGIK BILIMLARNING SHAKLLANISHI

**S. Raimjonov,**

A.Qodiriy nomidagi JDPI

Musiqiy ta'lim kafedrası

katta o'qituvchisi

**Avazbek O'ktamov,**

Musiqqa ta'limi yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagog shaxsining shakllanishi, bilimlar, mahorat va ko'nikmalar olish muammolarini yoritishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlari:** Musiqiy ta'lim va tarbiya, pedagogika, psixologiya, kasbiy metodika, pedagogik mahorat, intonatsiya, musiqiy vositalar, musiqiy shakllar .

O'qituvchini tayyorlash muammosi hozirgi zamonaviy pedagogik va psixologik fanning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. O'quv jarayoni, ta'lim uslublari va yoshlar tarbiyasini takomillashtirish ko'p darajada o'qituvchilarning tayyorgarlik va qayta tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Faqatgina o'qituvchilarning tayyorgarlik va qayta tayyorgarlik darajasini doimiy ko'tarish bilan maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish mumkin. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi mutaxassislarni tayyorlashning boshqa hamma turlari kabi pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagog shaxsining shakllanishi, bilimlar, mahorat va ko'nikmalar olishni o'z ichiga oladi. M.A.Kudoykulov o'qituvchi faoliyatining uch turga ajratadi: umumpedagogik, kasbiy-pedagogik, kasbiy-uslubiy.

O'qituvchining kasbiy va pedagogik mahorati deganda ustuvor ijtimoiy-siyosiy, umumilliy, maxsus, psixologik-pedagogik va kasbiy-metodik bilim va ko'nikmalar tizimi asosida olingan kasbiy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Kasbiy-uslubiy mahoratlar - bu mavjud psixopedagogik va uslubiy

bilimlar asosida fan o'qituvchisining vazifalarini bajarish qobiliyati. Shu tariqa, pedagog tayyorgarlikning ikkita turiga ega bo'ladi: kasbiy va malakaviy. Shuning uchun o'qituvchini odilona tarzda kasbi bo'yicha – pedagog, malakasi bo'yicha – o'qitayotgan faniga muvofiq (matematik, fizik, biolog va h.k.) fan o'qituvchisi deyishadi.

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligi barcha jihatlari, uning ijodiy bilimlari va amaliy mahoratlari tabiati va yo'nalganligidan, uning kasbiy moslashuvi va pedagogik mahorat asoslarini o'zlashtirish jarayoni qanchalik tez yakunlanishiga, natijada maktab ta'lim-tarbiya ishining samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

A.I.Piskunov bir tomonli nuqtai nazar mavjudligiga e'tibor beradi, unga ko'ra “pedagogika ayrim metodikalarga xuddi parallel chiqadi: metodika fan o'qituvchisiga sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan talabani qurollantiradi, pedagogika esa – o'quvchilar bilan maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni o'tkazish uchun kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan qurollantiradi”

Eng asosiysi pedagogning bilimlari bo'lajak o'qituvchilar fikrlashining pedagogik yo'nalganligini shakllanishini ta'minlaydi, ularsiz haqiqatdan ham ijodiy va o'z navbatida maktabda maksimal samarali pedagogik faoliyat amalga oshirish mumkin emas.

Musiq va ashula o'qituvchisining pedagogik-psixologik tayyorgarligi butun o'quv-tarbiyaviy jarayonning kasbiy-pedagogik yo'nalganligini ta'minlaydi. Aynan oliy ta'lim muassasasida pedagogik-psixologik sikl fanlarini o'rganish jarayonida talabalarda pedagogikaning metodologik asoslari va toifalarini bilish, pedagogik ish bilan qiziqish, pedagogik-psixologik hushyorlik va kuzatuvchanlik, pedagogik odob, pedagogik tassavur, tashkilotchilik qobiliyatlari, kirishimlilik, talabchanlik, qat'iyat, sobitqadamlik, vazminlik shakllanadi.

Garchi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish yagona jarayon sifatida amalga oshirilsa ham, ularning har birini alohida konkret musiqiy materialda shakllanish ketma-ketligini ko‘rib chiqish zarur:

- Tovushni rivojlantirish ketma-ketligi–baland eshitish va uyg‘unlik hissi. Asarlarni eshitish jarayonida registrlarning ifodali mohiyatini idrok qilish;

- ritm hissini rivojlantirish ketma-ketligi. Musiqadagi metrik bo‘laklar tekis oqishini o‘zlashtirish va takrorlash (musiqa ostida harakat jarayonida, eng sodda musiqa asboblarida chalish);

- musiqiy shakl hissining izchil rivojlanishi (butunlik hissi). (Bu erda shaklning hissideganda, elementar musiqiy tuzilmalar, ekspressivlik vositalari,

- qismlarning yaxlit tarkibga bo‘ysunishi va ularning ekspressiv mohiyati to‘g‘risida musiqiy-eshitish g‘oyalarini kompleks shakllantirish tushuniladi.)

Bolalar e‘tiborini qo‘shiqlardagi musiqiy til elementlarini rivojlantirishga; bunda eng sodda harakatlarni, ritmik, notali yozuvlarni bolalar musiqiy asboblarda o‘ynashni qo‘llashga urg‘u beriladi.

Bolalarda musiqa ostida harakatlar orqali jumlar, gaplarga musiqiy davrni bo‘lishni his qilishini kuchaytirish, bolalar musiqiy asboblaridagi o‘yinli qo‘shiqlar, pesalar bilan jo‘r qilish (masalan, ritmiy to‘xtash yoki ular boshlanishini ta’kidlash yordamida jumalarning yakunlanganligini qayd qilish).

Bolalar va o‘qituvchi bilan birgalikda p’esalarni eshitish uchun qo‘shiqlarning ifodali ijrosi ustidagi ish jarayonida hissiyotni kuchaytirish mumkin.

Asarlar mavzusini yaxshiroq tushunishga, his qilishga va asosiy g‘oyani tushunishga ko‘maklashuvchi uslublar mavjud:

- musiqa rivojlanishning asosiy prinsiplari haqida tasavvurlar shakllanishi (takrorlanuvchanlik, variantivlik, zidlik) va ularning ma’noviy yuklanmasi, qo‘shiqlar ijrosi ustida ishlash jarayonida musiqiy ifodalilik vositalari va asarlarni tinglash haqida tasavvurlar shakllanishi;

- intonatsiya haqida tasavvurlar shakllanishi, uning kelgusidagi musiqiy idrok qilishida uning muhim roli haqida, intonatsiyaning ifodali va tasviriy

mazmuni haqida, emotsional-semantik tarkib va uning timsoliy vositalari birligi sifatida intonatsiya haqida tasavvurlar shakllanishi;

- musiqiy fikrni bayon etish kabi mavzu haqida tasavvurlar shakllanishi (tanish qo‘shiq mavzusiga musiqiy asboblardan uchun variatsiyalar bajarish misolida);

- musiqa vositalari yordamida hayotiy hodisalarni aks ettirish sifatida musiqiy obraz haqida tasavvurlar shakllanishi (masalan, yumorning – halq qo‘shiqlarida).

Musiqiy asar tuzilishining tiplari, ularning ma’no yuklanmasi haqida tasavvurlar shakllanishi:

a) bitta musiqiy fikrni bayon etish, bitta obrazni ko‘rsatishni ifodalovchi bir qismli shakl (masalan, F.Nazarovning “Paxtaoy” qo‘shig‘i);

b) turli obrazlarni solishtirish vositasi (to‘ldiruvchi va zidlovchi); “ish nima bila tugaganligini” bildiruvchi ikkinchi qismning ma’no ustunligi sifatida (masalan, B.Umidjonovning “Oqshomda” pesasi) oddiy ikki qismli shakl;

v) chetki qismlarning oddiy uch qismli shakli, ma’no ustunligi, birinchi qism obrazining uchinchi tasdiqlanishi (masalan, L.Betxovenning “Xursand, G‘amgin” pesasi);

g) kuplet shakli ko‘p martali shakl sifatida, bir qismli va ikki qismli musiqiy tuzilishning takrorlanishi; qo‘shiq repertuarini yod olish va ifodali ijro etish, xor jamoalari chiqishlari yozuvlarini eshitish jarayonida shaklning o‘zlashtirilishi;

---

Piskunov A.I. pedagogika institutlari va universitetlari talabalarining umumpedagogik tayyorgarligini takomillashtirish №2. 79-86 b. Moskva-1987-yil.

d) rondo, refrenning ma’no yuklanmasi, rondodagi kontrast prinsipi; quyidagi asarlar misolida rondo shaklining ifodali imkoniyatlarini ochish;

e) variatsion shakl, variatsiyalash mavzuni o‘zgartirish uslubi sifatida: xarakter, janrni o‘zgartirish.

Shu tariqa musiqa bo'lajak musiqa o'qituvchilariga bolalar musiqiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi, bolalar musiqiy asarlari va qo'shiqlarini yaxshiroq tushunish uchun ko'maklashadi, qat'iy mantiqiy aloqalar shakllanishi uchun sharoitlar yaratadi. Musiqiy asarlarni ijro etish bosqichlarida mantiqiy aloqalar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodiy musiqiy qobiliyatlarini takomillashtiradi, bu esa musiqiy ijro jarayonida zamonaviy kompyuter vositalarini qo'llash imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.–T.“Ma'naviyat” 2008-yil.
2. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.T.: “O'qituvchi” nashriyoti. 2004-yil.
3. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogika texnologiyalarning tadbiiqiy asoslari. –T.: “Fan” nashriyoti. 2006-yil.
4. V.N.Maksimova. Mejpredmetnye svyazi v protsesse obucheniya. –M.: “Prosvishenie”. 1988-god.
5. T.E.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi. T.“O'qituvchi” nashriyoti.1981-yil.
6. B.S.Abdullaeva. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida. Uzluksiz ta'lim. –T.: 2005-yil. №1-son.
7. Nizomiy nomli TDPU (Res.ilm.anjuman). Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi. –T.: 2009-yil.
8. A.Qodiriy nomli JDPI (Res.ilm.anjuman). Yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning vazifalari. –J.: 2006-yil.
9. G.Sharipova. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. T.“Turon-Iqbol” 2003-yil.
10. E.P.Iova, A.Ya.Ioffe, O.D.Golovchiner. Utrennaya gimnastika pod muzyku. M.: “Prosvishenie”. 1984-god.